

Rahim qilmaganga rahim qilinmas



12:30 / 26.01.2019 4524

Aziz bolajonlar, Payg'ambarimiz alayhissalomning naqadar bolajon bo'lganlarini bilasizmi? Bu haqda sizga aytib berishganmi? Keling, quyidagi hadisni birgalikda o'rganamiz. Shunda o'zimiz bilib olamiz Rasulimiz bolalarni qanchalar yaxshi ko'rganini.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Al-Aqra' ibn Hobis Taymiy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlarida o'tirganida u zot Hasan ibn Alini o'pdilar.

Shunda u: «Mening o'nta bolam bor. Ulardan birortasini o'pganim yo'q», dedi.

Bas, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga nazar soldilar va: «Rahim qilmaganga rahim qilinmas», dedilar».

Buxoriy, Abu Dovud va Termiziy rivoyat qilganlar.

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam o'ta bolajon edilar. U zot o'z nabiralari imom Hasan va imom Husaynlarni juda ham yaxshi ko'rar va ularga mehribonlik ko'rsatar edilar.

Ushbu rivoyatda u zot sollallohu alayhi vasallamning imom o' Hasan roziyallohu anhuga ko'rsatgan mehrlari, sahobalardan birlarining bunga bo'lgan munosabatlari va ushbu munosabatning Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan baholanishi haqida so'z ketmoqda.

Bundan boshqalar ham bu ishni qilishlari joizligini bilib olamiz. kelib chiqadi. Bolasini o'pish unga rahm ko'rsatish ekan. Kishi birovga, xususan, o'z bolasiga rahm qilmasa, Alloh taolo ham o'sha kishiga rahm qilmasligini ham o'rganib oldik.

“Hadis va hayot” kitobidan